

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI**

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI

ANDIJON DAVLAT TIBBIYOT INSTITUI

“TASDIQLAYMAN”
O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor
B.R.Abdullajonov
“ 25 ” 2025 yil



**Andijon davlat tibbiyot institutida kredit-modul
o‘qitish tizimini joriy etish to‘g‘risida**

N I Z O M

Andijon

Ushbu Nizom O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 27 sentabrdagi 769-sonli "Tibbiyot kadrlarini tayyorlashni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 maydagi PQ-4310-sonli "Tibbiyot va farmasevtika ta'limi va ilm-fani tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash vazirligining 2020 yil 8 sentabrdagi 236 sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Tibbiyot va farmasevtika oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida kredit-modul o'qitish tizimini joriy etish to'g'risidagi Nizom"lari asosida ishlab chiqilgan hamda 2025-2026 o'quv yilida institutda o'quv jarayonini modulli ta'lim tizimida tashkil etish, bakalavriat va magistratura mutaxassisliklari **1-2-3-4-5-6 kurslarida** ta'lim oluvchilari bilimini nazorat qilish va baholash tartibini belgilaydi.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Institutning bakalavriat va magistratura talabalari (bundan buyon matnda "ta'lim oluvchilar" deb yuritiladi) bilimini nazorat qilish va baholashning maqsadi — yuqori malakali, raqobatbardosh, sog'liqni saqlashning zamonaviy xalqaro standartlarga javob bera oladigan tibbiyot kadrlarni tayyorlash hamda ta'lim oluvchilarda mustaqil ta'lim olish, ta'lim sifatini boshqargan holda tibbiyotning tegishli sohalarida amaliy ko'nikmalarni hosil qilish va rivojlantirish, talabalarining modullarni o'zlashtirishida bo'shliqlar hosil bo'lishining oldini olish, ularni aniqlash va bartaraf etishdan iborat.

Institutda kredit-modulli o'qitish tizimini joriy etish to'g'risidagi Nizom (keyingi o'rinlarda Nizom deb yuritiladi) tibbiyot va farmasevtika ta'lim jarayoniga kredit-modul tizimini bosqichma-bosqich joriy etish va mutaxassislarni amaliy jihatdan tayyorlashni takomillashtirish orqali oliy, o'rta maxsus professional, oliy va o'rta maxsus professional ta'limdan keyingi ta'limning ustuvor yo'nalishlarini belgilab beradi.

2. Ushbu Nizom tibbiyot sohasidagi bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklariga nisbatan qo'llaniladi.

Ta'lim oluvchilar institut pedagoglari tomonidan birinchi mashg'ulotda mazkur Nizom talablari bilan tanishtirilishi shart.

3. Nizom institutning kredit-modul tizimini joriy etish faoliyatini tartibga soladi.

4. Ta'lim oluvchilar bilimini baholashda ishlab chiqarish (malaka) amaliyoti, integratsiyalashgan klinik(mahsus) va klinik-oldi(umumkasbiy) imtihoni, bitiruvchilarning (modullararo) davlat imtihoni (yakuniy davlat attestatsiyasi), shuningdek, magistratura bosqichida ilmiy-tadqiqot va ilmiy-pedagogik ishlar hamda magistrlik dissertatsiyasi bo'yicha mazkur Nizomda belgilangan baholash mezonlari qo'llaniladi.

5. Modul - bu alohida individual o'quv fani, o'zida bilimga egalik qilish va kasbiy jihatlarni qamrab olgan bo'lib, ta'lim oluvchilarning o'quv dasturini o'zlashtirish natijasida shakllangan bilim, ko'nikma va kompetensiyalarni nazorat qilishning tegishli turi bilan yakunlanishi kerak.

6. Kredit-modul o'qitish tizimi - har bir o'quv moduli tarkibini tuzishga asoslangan modulning o'quv natijalari va yakuniy nazoratni kuzatib borish orqali ta'lim oluvchilarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini muntazam ravishda baholab boruvchi o'quv dasturini o'zlashtirish jarayonini tashkil etish tizimi.

7. Kredit-modul o'qitish tizimi ma'ruza, nazariy, amaliy, seminar, laboratoriya mashg'ulotlari, o'quv amaliyoti, klinik o'quv amaliyotlar, shuningdek ta'lim oluvchilarning mustaqil mashg'ulotlari bo'yicha haftalik soat yuklamasi va ta'lim oluvchilarning faoliyatini

baholash mezonlarini aks ettiradi. Ta'lim oluvchilar tomonidan barcha majburiy faoliyat turlari bajarilgandan va ular baholangandan so'ng kreditlarni to'plash mumkin.

8. Kredit birliklari tizimi - bu kredit dasturlarini uning tarkibiy qismlariga (modullar, modullar bloklari, kurslar va boshqalar) biriktirish orqali ta'lim dasturlarini tavsiflashning tizimli usuli. Kreditning ta'rifi ta'lim oluvchilarning o'quv modulini o'zlashtirishda pedagog bilan bog'lanish vaqti, uni o'qitish natijalari, bilim, ko'nikma va kompetensiyalariga asoslanadi.

2-bob. O'quv jarayonini kredit-modul o'qitish tizimi sharoitida tashkil etish

9. Kredit-modul o'qitish tizimi o'quv jarayonining quyidagi shakllaridan iborat:

auditoriya mashg'ulotlari - ma'ruza, nazariy, amaliy, seminar, laboratoriya mashg'ulotlari, o'quv(klinik) amaliyoti;

auditoriya tashqari mashg'ulotlar - ilmiy kutubxonada ishlash, mustaqil ishlar, individual maslahatlar, klinik vazifalar, ishlab chiqarish (malaka) amaliyoti, ta'lim oluvchilar ilmiy anjumanlarda qatnashishi, magistratura mutaxassiliklarida ilmiy faoliyat turlari va h.k;

10. Modullar quyidagilar orqali amalga oshiriladi:

kredit birliklarini hisobga olgan holda o'quv rejadagi har bir moduli uchun dasturlar;

har bir modulning auditoriya ishi: ma'ruzalarning matn va prezentatsiyalari, nazariy, amaliy, seminar va laboratoriya mashg'ulot rejalari, multimediya bilan ta'minlash, amaliy ko'nikmalarni va kompetensiyalarni o'zlashtirishi uchun jihoz va simulyatorlar (trenajyorlar);

ta'lim oluvchilarning mustaqil ishlashi: uy vazifasi uchun matnlar to'plami, har bir modul uchun o'z-o'zini nazorat qilish materiallari, referatlari mavzulari, elektron kutubxona, videoteka (video kutubxona), amaliy ko'nikmalar va kompetensiyalarni o'zlashtirishi uchun jihoz va simulyatorlar (trenajyorlar);

ta'lim oluvchilar bilimini nazorat qilish: testlar, har bir modul uchun nazorat savollari, jumladan, ob'ektiv tizimlashtirilgan klinik imtihon (OSCE), ob'ektiv tizimlashtirilgan imtihon (OSE) va boshqalar uchun topshiriqlar;

amaliyot o'tkazish: davolash profilaktika muassasalari bilan shartnomalar tuzish, o'quv va ishlab chiqarish (malaka) amaliyoti o'tkazish rejalari va dasturlari, hisobot hujjatlari shakllari va boshqalar.

magistratura mutaxassisliklarida ilmiy faoliyat yuritish: ilmiy – tadqiqot ishi, ilmiy amaliyot va magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash uchun mavzu va materiallar, hisobot hujjatlari shakllari va boshqalar.

11. **Kredit** - bu ta'lim oluvchi tomonidan o'quv rejasi bajarilishining ko'rsatkichi bo'lib, tegishli o'quv ishlarini (modul xususiyati va bo'lajak mutaxassisni shakllantirish uchun o'quv ishlarining muhimligidan kelib chiqib institut tomonidan belgilanadigan) bajarishga ketadigan vaqt (soatlar)dan tashkil topadi. Har bir modul mustaqil kreditga ega bo'ladi.

12. O'quv rejasidagi barcha turdagi o'quv ishlarining **yuklamalari** kreditlar (kredit birliklari)da belgilanadi. **1 kredit (kredit birligi)** ta'lim yo'nalishi, mutaxassislik xususiyatlarini inobatga olgan holda Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan **30-36 akademik soatga** teng qilib belgilangan.

Dasturlarning yuklamalari quyidagilardan iborat:

bakalavriat ta'lim yo'nalishlari 1-2-3-4 kurslarida kamida **60 kredit** bir o'quv yili davomida ta'lim oluvchining to'liq yuklamasiga, kamida **30 kredit** esa bir o'quv semestriga to'g'ri keladi;

magistraturada kamida **60 kredit** bir o'quv yili davomida ta'lim oluvchining to'liq yuklamasiga, kamida **30 kredit** esa bir o'quv semestriga to'g'ri keladi;

bakalavriat ta'lim yo'nalishlari 5-6 kurslarida kamida **72 kredit** bir o'quv yili davomida ta'lim oluvchining to'liq yuklamasiga, kamida **36 kredit** esa bir o'quv semestriga to'g'ri keladi;

magistraturada kamida **72 kredit** bir o'quv yili davomida ta'lim oluvchining to'liq yuklamasiga, kamida **36 kredit** esa bir o'quv semestriga to'g'ri keladi;

Bir kredit birligi umumiy ish hajmi davomiyligi 40 daqiqa, 36 akademik soatga muvofiq keladi.

Ta'lim oluvchining haftalik o'quv yuklamasining maksimal hajmi 54 akademik soatni, ya'ni 1,5 kredit birligini tashkil etadi.

Modul o'quv yuklamasini kredit birliklarida hisoblash o'rnatilgan tartib bo'yicha uning ish hajmini 36 akademik soatga bo'lishdan kelib chiqib, u 0,5 gacha yaxlitlash orqali amalga oshiriladi. Modul bo'yicha sinovning ish hajmi modulning kredit birligida umumiy o'quv yuklamasi tarkibiga kiradi.

Ishlab chiqarish (malaka) amaliyotning 1 haftasi 1,5-4,0 kredit birligida ifodalanadi. Ta'lim yo'nalishi va mutaxassislik xususiyatlarini inobatga olgan holda ishlab chiqarish (malaka) amaliyoti modulini to'liq amalga oshirish maqsadida haftalar soni ko'paytirilishi mumkin.

Semestr bo'yicha bir imtihon 1 kredit birligi (3 kungacha tayyorgarlik ko'rish va 1 kun imtihon topshirish)da ifodalanadi.

Magistraturada, birlamchi maqsadli ixtisoslashtirishda semestr yakuni bo'yicha attestatsiya (yarim yillik, yillik) o'tkaziladi.

Mazkur uslubga tayanib, kredit birliklari sonini yagona hisoblash metodologiyasidan kelib chiqqan holda amalga oshirish mumkin: 1 kredit birligi davomiyligi 40 daqiqali 36 (30) akademik soatga; 1 hafta (amaliyot yoki boshqa o'quv ishlari) = 54 (45) akademik soatga = 1,5 kredit birligiga (1-2 kurslarda 1 kredit=30 soat).

Nazoratlarga kredit birligi modulga berilgan kredit birligi hisobidan ajratiladi.

13. Kreditlar soni ta'lim oluvchilarning umumiy yuklamasi, jumladan o'quv yuklamalari (ma'ruzalar, seminarlar, nazariy va amaliy mashg'ulotlar, laboratoriya ishlari, o'quv yoki o'quv klinik amaliyot va boshqalar), mustaqil ishlar, bilimlarni sinovdan o'tkazishning barcha turlari, amaliyot va bitiruvchilarining davlat imtihonlarini dastlabki akkreditatsiya bilan o'tkazish (yakuniy davlat attestatsiyasi)ning barcha turlarini qamrab oladi.

14. Institutda "Harbiy tibbiy tayyorgarlik" moduli kreditlarda (kredit birligi) xisoblanmaydi.

15. O'quv yilida auditoriya mashg'ulotlar 36 haftani tashkil etadi (1-2-3-4 kurslarda 30). O'quv semestri 18 haftani (1-2-3-4 kurslarda 15) tashkil etadi.

16. Ta'lim mazmunini o'zlashtirishning majburiylik va ketma-ketlik darajasiga ko'ra, ta'lim yo'nalish (mutahassislik)lari bo'yicha namunaviy o'quv rejasiga quyidagilar kiradi:

Davolash faoliyati bilan bog'liq bakalavriat ta'lim yo'nalishlari uchun:

gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy modullar bloki;

klinika oldi modullar bloki;

klinik modullar bloki;

elektiv modullar (1-, 2-, 3- blok modullari uchun, xududiy komponent) bloki.

Davolash faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan bakalavriat ta'lim yo'nalishlari uchun:

gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy modullar bloki;

umumkasbiy modullar bloki;

maxsus modullar bloki;

elektiv modullar (1-, 2-, 3- blok modullari uchun, xududiy komponent) bloki.

Magistratura mutaxassisliklari uchun:

umummetodologik modullar bloki;

mutaxassislik modullar bloki;

tanlov modullar bloki;

ilmiy faoliyat modullar bloki.

17. Ta'lim oluvchi belgilangan tartibda ta'lim oluvchilar reytingini hisobga olish elektron tizimi vositasida va institut binolarining elektron e'lon taxtalarida joylashtirilgan e'lonlardan joriy, oraliq va yakuniy nazorat ish natijalarini mustaqil ravishda bilib borishga majburdir.

18. Ta'lim oluvchining ijtimoiy xususiyatlarini baholash ularning mas'uliyati va tashkiliyligini oshirish, zarur bilimlarni chuqur va har tomonlama o'zlashtirishga turtki berish,

shuningdek, tizimli ish ko'nikmalari va kompetensiyalarni shakllantirish maqsadida amalga oshiriladigan o'quv jarayonining ajralmas qismi sifatida qaraladi.

Ta'lim oluvchilarning shaxsiy ijtimoiy xususiyatlarini baholash pedagog tomonidan semestrda bir marta amalga oshiriladi.

19. Kreditlar to'plami va ta'lim oluvchilarni o'qitishning individual yo'nalishlarini tashkil qilish:

bakalavr diplomini olish uchun bakalavriat talabasi ta'lim yo'nalishiga va o'qish muddatiga muvofiq kamida 180 dan 360 gacha kredit to'plashi kerak;

magistr diplomini olish uchun magistratura mutaxassisligiga o'qish muddatiga muvofiq kamida 144 dan kam bo'lmagan kredit to'plashi kerak;

20. Kreditlar soni ta'lim oluvchilarning umumiy yuklamasi, jumladan o'quv yuklamalari (ma'ruzalar, seminarlar, nazariy va amaliy mashg'ulotlar, laboratoriya ishlari, o'quv yoki o'quv klinik amaliyot, magistrlik dissertatsiya va boshqalar), mustaqil ishlar, bilimlarni sinovdan o'tkazishning barcha turlari, ishlab chiqarish (malaka) amaliyoti va bitiruvchilarning davlat imtihonlarini dastlabki akkreditatsiya bilan o'tkazish (yakuniy davlat attestatsiyasi)ning barcha turlarini qamrab oladi.

3-bob. Ta'lim oluvchilar bilimini baholashning umumiy qoidalari

21. Institutda ta'lim oluvchilar bilimini nazorat qilish va baholashning maqsadi - yuqori malakali, raqobatbardosh, zamonaviy xalqaro standartlarga javob bera oladigan tibbiy (farmasevt) kadrlarni tayyorlash hamda ta'lim oluvchilarda mustaqil ta'lim olish, ta'lim sifatini boshqargan holda tibbiyotning tegishli sohalarida bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishdan iborat.

22. Ta'lim oluvchilar bilimini nazorat qilish va baholashning asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

ta'lim oluvchilarda davlat ta'lim standartlari, bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha kasbiy tayyorgarlik darajasiga qo'yilgan talablarga muvofiq tegishli bilim, ko'nikma, kompetensiya va malakalar shakllanganlik darajasini nazorat qilish va tahlil qilib borish;

ta'lim oluvchilar bilimi, ko'nikma, kompetensiya va malakalarini baholashning asosiy tamoyillari: davlat ta'lim standartlari, mutaxassislik bo'yicha tibbiyot kadrlarni kasbiy tayyorgarlik darajasiga qo'yilgan talablarga asoslanganlik, aniqlik, haqqoniylik, ishonchlilik, bilimlarni baholashda shaffoflikni ta'minlash;

o'quv materialining ta'lim oluvchilar tomonidan tizimli ravishda va belgilangan muddatlarda o'zlashtirilishini tashkil etish va tahlil qilish;

ta'lim oluvchilarda mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish, axborot resurslari manbalaridan samarali foydalanishni tashkil etish;

ta'lim oluvchilar bilimini holis va adolatli baholash hamda uning natijalarini o'z vaqtida ma'lum qilish;

ta'lim oluvchilarning o'quv rejasi doirasida kompleks hamda uzluksiz tayyorgarligini ta'minlash;

o'quv jarayonining tashkiliy ishlarini kompyuterlashtirishga (raqamlashtirishga) sharoit yaratish.

23. Institutning o'quv ishlari bo'yicha prorektori tegishli kafedra (bo'lim, laboratoriya va h.k.) mudirlari bilan kelishilgan holda har bir modul bo'yicha modul rahbarini, ya'ni alohida modulni o'qitishning sifati, o'quv materialini shakllantirish, shuningdek, barcha turdagi nazorat savollarini tuzish, ta'lim oluvchilar bilimini tekshirishda yagona standartlarni ta'minlashga mas'ul bo'lgan pedagog xodimlarni belgilaydi.

Kredit-modulli ta'lim tizimi bo'yicha ta'lim oluvchilar bilimini semestr davomida baholab borish nazorat jadvallari va baholash mezonlari asosida amalga oshiriladi.

24. Modulning dasturi mazmunini o'zlashtirish kreditni - ta'lim oluvchilarning o'quv yuklama hajmini aniqlashning shartli birligini qo'llagan holda belgilanadi.

25. Tibbiyot va farmasevtika uzluksiz kasbiy ta'lim muassasalararo Muvofiqlashtiruvchi kengashi har bir modul bo'yicha kreditlar sonini, shuningdek, har bir kurs va umuman o'qish davrini tamomlash uchun ta'lim oluvchi tomonidan to'planishi lozim bo'lgan kreditlarning umumiy sonini belgilaydi.

26. Ta'lim oluvchilar mazkur Nizomga muvofiq modul dasturi mazmunini o'zlashtirgan (reyting ballari qoniqarli) taqdirda, u tegishli modul bo'yicha kreditlarning zarur sonini to'plagan, deb hisoblanadi.

4-bob. Ta'lim oluvchilar bilimini nazorat qilish turlari va shakllari

27. Ta'lim oluvchilarning bilim, saviyasi va o'zlashtirish darajasini davlat ta'lim standartlari, mutaxassislik bo'yicha tibbiyot kadrlarni kasbiy tayyorgarlik darajasiga qo'yilgan talablarga muvofiqligini ta'minlash uchun institutda:

joriy, oraliq va yakuniy nazorat(attestatsiya);

integratsiyalashgan klinik-oldi (umumkasbiy), klinik (mahsus) imtihonlari;

bitiruvchilarning davlat imtihonlarini dastlabki akkreditatsiya bilan o'tkazish (yakuniy davlat attestatsiyasi)nazorat turlarini o'tkazish orqali amalga oshiriladi.

Nazorat (imtihon) shakllari - modul bo'yicha test, imtihon (yozma, og'zaki, amaliy (klinik), ob'ektiv tizimlashtirilgan klinik imtihon (OSCE), ob'ektiv tizimlashtirilgan imtihon (OSE) va boshqalar), magistrlik dissertatsiyasi himoyasi va boshqalar.

28. Modulning nazorat jadvallari, nazorat turlari va shakllari, nazoratlar soni hamda joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar uchun belgilangan ballar to'g'risidagi ma'lumotlar pedagog hodim tomonidan birinchi mashg'ulotda ta'lim oluvchilarga e'lon qilinadi.

29. Nazorat turlarini o'tkazish va ta'lim oluvchilar bilimini baholash tegishli kafedra mudiri tomonidan tashkil etilgan pedagoglar tomonidan amalga oshiriladi.

30. Nazorat turlarini o'tkazish va ta'lim oluvchilar bilimini baholashga kelishuv asosida boshqa tashkilotlarning soha mutaxassislari ham jalb qilinishi mumkin.

5-bob. Joriy nazoratni o'tkazish

31. Joriy nazorat ta'lim oluvchining modul mavzulari bo'yicha bilimi, amaliy ko'nikmalar va kompetensiyalarni egallaganlik darajasini aniqlash va baholash usuli hisoblanadi. Joriy nazorat ta'lim oluvchi tomonidan modul mavzusi mazmunini o'zlashtirganlik darajasini baholashga qaratiladi, shuningdek, o'quv materialini konstruktiv ravishda sharhlash va tahlil qilish, modulga oid ko'nikmalarini rivojlantirish, amaliy ko'nikmalar (sifati va belgilangan soni jihatdan) va kompetensiyalarni egallash, kasbiy amaliy ko'nikmalarni qo'llashga yo'naltirilgan muammoli vaziyatlarni hal etish (keys-stadi), jamoada ishlash, prezentatsiyalar tayyorlash va h. k. ni baholashga qaratiladi.

32. Modulning mazmunidan kelib chiqqan holda bir semestrda o'qitiladigan kundalik mashg'ulotlar yoki bir-biriga bog'liq mavzulari kafedra tomonidan bloklarga birlashtiriladi va ularni o'zlashtirish natijasida ta'lim oluvchilar modul doirasida kelgusi kasbiy faoliyat uchun zarur bo'lgan mustaqil nazariy bilim, amaliy ko'nikmalar va kompetensiyalar majmuiga ega bo'lishlari shart.

33. Modulning kundalik mashg'ulotlar yoki har bir blok mavzusi doirasida joriy nazorat seminar, o'quv(klinik) amaliyoti, nazariy, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarida, odatda, quyidagi shakllarda o'tkaziladi: og'zaki so'rov (mantiqiy muammoli savollarni qo'llagan holda), taqdimot (modulning tegishli mavzusi bo'yicha kichik-guruhlar doirasida), kasbiy amaliy ko'nikmalarni qo'llashga qaratilgan muammoli vaziyatlarni hal etish (keys-stadi), jamoada ishlash (zamonaviy interfaol uslublarni qo'llagan holda va h.k.), modulga oid muammolarni tahlil qilish, amaliy (shu jumladan klinik) ko'nikmalarini (sifati va belgilangan soni jihatdan) o'zlashtirish, kompetensiyalarni egallash hamda kafedra tomonidan belgilanadigan boshqa shakllarda o'tkaziladi. Joriy nazorat shakllari modulning dasturida qayd etiladi.

34. Modulning kundalik mashg'ulotlari bo'yicha har kuni yoki har bir mavzular bloki o'qitiladigan oxirgi kuni pedagog xodim joriy nazoratni yakunlaydi va ushbu nazorat turi bo'yicha

ta'lim oluvchilarning ballarini qo'yadi. Bunda, kundalik baholash yoki har bir modul mavzulari bloki bo'yicha ta'lim oluvchi olgan baholar yig'indisi mashg'ulotlar soni yoki, mos ravishda, modul bloklari soniga bo'linadi va semestr davomida to'plangan joriy nazorat bahosi aniqlanadi. Semestr-dan-semestr-ga o'tuvchi modullar bo'yicha har bir semestrda to'plangan joriy nazorat o'rtacha baholarning yig'indisi semestrlar soniga bo'lish orqali modulning o'rtacha joriy nazorat bahosi aniqlanadi.

35. Joriy nazorat uchun o'qituvchi jurnallari o'quv-uslubiy boshqarma tomonidan tayyorlanadi, boshqarma boshlig'i tomonidan tasdiqlanadi hamda tegishli o'quv yili boshlanishidan oldin tegishli kafedralarga taqdim qilinadi.

36. Joriy nazorat natijalari kundalik mashg'ulotlarni yoki har bir modul mavzulari bloki bo'yicha alohida ravishda pedagogning elektron jurnalida hamda ta'lim oluvchi reytingini hisobga olish elektron tizimiga tegishli pedagog xodim tomonidan ta'lim muassasalarining o'quv ishlari bo'yicha prorektori tomonidan belgilanadigan muddat ichida, oraliq nazorat davri boshlangunga qadar kiritilishi shart. O'quv ishlari bo'yicha prorektorning bildirgisiga asosan muddatni buzgan pedagog hodimga nisbatan intizomiy javobgarlik choralari qo'llanishi mumkin. Modul bo'yicha joriy nazoratning natijasi pedagog hodim tomonidan imzolanadigan (tayyorlangan elektron) qaydnoma ko'rinishida shakllantiriladi.

37. Joriy nazorat natijalarining o'z vaqtida ta'lim muassasalari o'quv bo'limlari va dekanatlariga taqdim etilishi, shuningdek, o'qituvchi jurnal hamda ta'lim oluvchilar reytingini hisobga olish elektron tizimida uni to'liq va to'g'ri aks ettirish uchun javobgarlik tegishli modulni o'qitadigan pedagog hodimlar zimmasiga yuklanadi.

38. Kundalik mashg'ulotlarda yoki modul mavzulari bloklari bo'yicha joriy nazoratni o'z vaqtida topshira olmagan hamda darsda qatnashmagan ta'lim oluvchilarga, joriy nazoratni o'quv semestri davomida qayta topshirishga ruxsat etiladi.

39. Joriy nazoratni to'liq o'zlashtirmagan ta'lim oluvchilar oraliq va yakuniy nazoratga qo'yilmaydi.

6-bob. Oraliq nazoratni o'tkazish

40. Oraliq nazorat semestr davomida yoki semestr-dan-semestr-ga o'tuvchi yakunlanmagan modul dasturining tegishli (modulning bir necha mavzularini o'z ichiga olgan) bo'limi tugagandan keyin ta'lim oluvchining bilim darajasini baholash va amaliy ko'nikmani (sifati va belgilangan soni jihatdan) va kompetensiyalarni egallaganligini aniqlash usuli hisoblanadi va o'quv mashg'ulotlari davomida o'tkaziladi.

41. Oraliq nazorat ta'lim oluvchi tomonidan modul dasturining tegishli bo'limlari mazmunini o'zlashtirish darajasi, ta'lim oluvchining adabiyotlardan foydalanishi, kasbiy amaliy ko'nikmalarni qo'llashga qaratilgan muammoli vaziyatlarni hal etish (keys-stadi), tizimli tahlil, mantiqiy fikrlash, mustaqil tadqiqot olib borish, amaliy ko'nikmani (sifati va belgilangan soni jihatdan) va kompetensiyalarni egallaganligini, o'z fikrlarini izchil va aniq bayon qilish qobiliyatini baholashga qaratilgan.

42. Pedagog xodimlar oraliq nazorat natijalarini o'quv-uslubiy boshqarmaga topshirishi va ta'lim oluvchilar reytingini hisobga olish elektron tizimi hamda o'qituvchi jurnaliga kiritishi shart.

43. Tegishli pedagog xodim tomonidan institutning o'quv ishlari bo'yicha prorektori tomonidan belgilanadigan muddat ichida, yakuniy nazorat davri boshlangunga qadar kiritilishi shart. O'quv ishlari bo'yicha prorektorning bildirgisiga asosan muddatni buzgan pedagog hodimga nisbatan intizomiy javobgarlik choralari qo'llanishi mumkin. Modul bo'yicha oraliq nazoratning natijasi pedagog hodim tomonidan imzolanadigan (tayyorlangan elektron) qaydnoma ko'rinishida shakllantiriladi.

44. Oraliq nazorat jadvallari o'quv reja asosida o'quv-uslubiy boshqarma (dekanat, kafedra) tomonidan tuziladi va o'quv ishlari bo'yicha prorektor tomonidan tasdiqlanadi.

45. Oraliq nazorat shakli va muddati modulning xususiyatidan kelib chiqib tegishli kafedra tomonidan belgilanadi.

46. Oraliq nazorat topshiriqlari tegishli kafedra pedagoglari tomonidan ishlab chiqiladi va kafedra mudiri tomonidan tasdiqlanadi.

47. Ta'lim oluvchi modul bo'yicha yakuniy nazorat turi o'tkazilgan muddatga qadar oraliq nazorat turini topshirgan bo'lishi shart.

48. Ta'lim oluvchi uzrli sabablarga ko'ra oraliq nazorat turiga kirmagan taqdirda ushbu ta'lim oluvchi tegishli nazorat turini qayta topshirishga fakultet dekanining farmoyishi asosida ruhsat beriladi.

49. Oraliq nazorat turini topshirmagan, shuningdek ushbu nazorat turi bo'yicha qoniqarsiz baho olgan ta'lim oluvchi yakuniy nazorat turiga kiritilmaydi.

50. Oraliq nazorat o'tkazish belgilangan muddatda modul bo'yicha oraliq nazoratga qo'yilmagan va qoniqarsiz baho olgan ta'lim oluvchi, akademik qarzdor hisoblanadi, unga yangi semestr boshida bir oy davomida akademik qarzdorlikni bartaraf etish uchun qayta topshirishga ruxsat beriladi.

7-bob. Yakuniy nazoratni o'tkazish

51. Yakuniy nazorat muayyan modul bo'yicha ta'lim oluvchilar tomonidan nazariy bilimlarini o'zlashtirish, amaliy ko'nikmalar (sifati va belgilangan soni jihatdan) va kompetensiyalarni egallaganlik darajasini baholash usuli hisoblanadi va semestr yoki modul yakunida o'tkaziladi.

52. Yakuniy nazorat ta'lim oluvchining modul dasturi mazmunini o'zlashtirganlik darajasi, uning mantiqiy fikrlashi, modulga oid bilimlarni nazariy va amaliy jihatlarini o'zlashtirish, amaliy ko'nikmalarni to'liq egallash, kasbiy amaliy ko'nikmalarni qo'llashga qaratilgan muammoli vaziyatlarni (keys-stadi) hal etish, tizimli, tanqidiy tahlil qila olishi, dalillarga asoslangan tibbiyotni qo'llashda o'z fikrlarini izchil va aniq bayon qilish qobiliyatlarini baholashga qaratilgan.

53. Yakuniy nazorat shakli va muddati modulning xususiyatidan kelib chiqib tegishli kafedra tomonidan belgilanadi va institut Kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

54. Yakuniy nazorat uchun tayyorlangan topshiriqlar, qoida tariqasida, tegishli kafedra pedagoglari tomonidan modul doirasida o'tilgan mavzularni qamrab olgan holda tayyorlanishi lozim va institut Kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

55. Yakuniy nazoratni o'tkazish o'quv ishlari bo'yicha prorektor tomonidan tasdiqlangan jadval asosida o'tkaziladi.

56. Auditoriya rahbarlari va kuzatuvchilarning tasdiqlangan ro'yxati ta'lim muassasasi tarkibiy bo'linmalari e'tiboriga yetkaziladi.

Yakuniy nazoratni o'tkazishda kelishuv asosida boshqa ta'lim muassasalarining tegishli modul bo'yicha pedagoglari jalb qilinishi mumkin.

57. Yakuniy nazoratga pedagog hodimning sababsiz kelmasligi (yoki kechikib kelishi) ularga nisbatan intizomiy choralarni qo'llashga asos bo'ladi. Kelmagan pedagog hodimning almashtirish majburiyati tegishli kafedra mudiri zimmasiga yuklatiladi.

58. Ta'lim oluvchilar yakuniy nazorat o'tkazilayotgan auditoriyaga faqat ta'lim oluvchilar guvohnomasi yoki shahsini tasdiqlovchi boshqa hujjatni taqdim etganlaridan so'ng kiritiladi.

59. Imtihon jadvalida belgilangan nazorat (imtihon) vaqti rasman boshlangandan so'ng kelgan ta'lim oluvchilar unda ishtirok etishga qo'yilmaydi. Kechikib kelishning sababi uzrli deb topilganda, ta'lim oluvchi auditoriya rahbarining roziligi bilan kiritilishi mumkin.

60. Yakuniy nazorat o'tkazilayotgan auditoriyaga imtihon komissiyasi a'zolari, auditoriya rahbari va kuzatuvchilardan boshqa shaxslarning kirishi qat'iyan taqiqlanadi. Yakuniy nazorat o'tkazish jarayoni rektor, o'quv ishlari bo'yicha prorektor tomonidan nazorat qilib turilishi mumkin.

61. Nazorat (imtihon) o'tkazilayotgan modul bo'yicha kafedra mudiri yakuniy nazorat imtihonining borishi, xususan, tegishli pedagog xodimlarning o'z majburiyatlarini bajarishi ustidan nazoratni amalga oshiradi.

62. Yakuniy nazorat o'tkazishga mas'ul pedagog hodimlarning **majburiyatlari:**

ta'lim oluvchilarni yakuniy nazorat boshlanishidan avval uni o'tkazish tartibi va davom etish vaqti haqida xabardor qilish;

ta'lim oluvchilarning mobil telefonlarini o'chirishlari va topshirishlarini ta'minlash;
ta'lim oluvchilarga yakuniy nazorat davomida foydalanish taqiqlangan barcha predmetlarni kuzatuvchilarga o'z ixtiyorlari bilan topshirishlarini taklif etish;

ta'lim oluvchilarni auditoriyada bir-birlaridan ko'chirishlari va o'zaro gaplashish uchun imkon bo'lmaydigan holda joylashtirish;

yakuniy nazorat o'tkazilayotgan to'liq vaqt davomida tartibga lozim darajada rioya qilinishini ta'minlash;

zarur bo'lganda ta'lim oluvchilarga qayd etilgan noaniqliklar, texnik xatolar yoki topshiriqni bajarishga qo'yiladigan maxsus talablar haqida ma'lumot berish;

yakuniy nazorat o'tkazish qoidalarini buzgan ta'lim oluvchilarni tegishli dalolatnoma tuzgan holda imtihondan chetlashtirish.

63. Yakuniy nazorat o'tkazish davomiyligi ta'lim muassasasining o'quv-uslubiy boshqarma va fakultet dekanati tomonidan belgilanadi. Nazorat (imtihon) vaqti auditoriya rahbari tomonidan yo'l-yo'riq berilgan vaqtdan boshlanadi.

64. Yakuniy nazorat o'tkazish vaqtida ta'lim oluvchilarning imtihon topshiriqlarining mazmuni to'g'risidagi murojaatlari ko'rib chiqilmaydi.

65. Yakuniy nazorat ta'lim oluvchi tomonidan mustaqil ravishda bajarilishi va topshirilishi shart.

66. Yakuniy nazorat imtihoniga ta'lim oluvchi o'rniga boshqa ta'lim oluvchi yoki boshqa shahs kirgan holatlar aniqlanganda, ta'lim oluvchiga nol reyting bali qo'yilib, ta'lim muassasasining ichki tartib qoidalariga muvofiq javobgarlikka tortilishiga asos bo'ladi.

67. Bir kunda bittadan ortiq modul bo'yicha yakuniy nazorat turi o'tkazilishiga yo'l qo'yilmaydi. Yakuniy nazorat turlarini o'tkazish kamida 2 kun oralig'ida belgilanishi lozim.

8-bob. Nazoratning ob'ektivligini ta'minlash

68. Nazorat turlarini o'tkazish bo'yicha tuzilgan topshiriqlarning mazmuni ta'lim oluvchilarning o'zlashtirishini shaffof, holis (ob'ektiv) va aniq baholash imkoniyatini berishi shart.

69. Joriy, oraliq va yakuniy nazorat topshirish reyting (yoki elektron) qaydnomalari dekanatlarga belgilangan muddatlarda taqdim qilinishi (rasmiylashtirilishi) kerak.

70. Kafedraning pedagog xodimlari joriy nazoratni o'tkazish davrida ta'lim oluvchilar bilimi, amaliy ko'nikmalar va kompetensiyalarni holis va ob'ektiv baholashlari, oraliq va yakuniy nazoratlarni o'tkazish jarayonida imtihon komissiyasi tarkibiga kiritilgan a'zolar tomonidan adolat va shaffoflik mezonlarini ta'minlanishi kafedra mudiri, fakultet dekanlari, o'quv ishlar bo'yicha prorektor tomonidan doimiy ravishda nazorat qilib boriladi.

71. Joriy nazorat natijalari kundalik yoki blokli modullar bo'yicha nazorat o'tkazilgan kuni, oraliq hamda yakuniy nazorat natijalari ikki kun muddat ichida ta'lim oluvchilar e'tiboriga yetkaziladi.

72. Baholash jarayonida noholislik va sub'ektivlikka yo'l qo'ygan pedagog xodimlarga nisbatan o'quv ishlari bo'yicha prorektor taqdimnomasiga ko'ra intizomiy jazo choralari qo'llanishi mumkin.

73. Fakultet dekanati va kafedra tekshirilgan OSE/OSCE baholash varaqalarini, yozma ishlar bilan tanishish uchun ta'lim oluvchilarga imkon yaratib beradi. Ta'lim oluvchi qo'yilgan balldan norozi bo'lsa, o'z ishi bilan tanishgandan so'ng bir sutka davomida (joriy nazorat natijasidan norozi bo'lganda — joriy nazorat natijalaridan xabardor bo'lgan vaqtdan boshlab bir sutka davomida) fakultet dekani nomiga apellyatsiya shikoyatini berishi mumkin. Appelyatsiya shikoyat arizasi tushgan kundan boshlab 3 kun ichida ko'rib chiqilib, xulosa beriladi.

74. OSE/OSCE imtihonini baholash o'rnatilgan tartibda amalga oshiriladi. Test imtihoni kompyuter vositasida maxsus o'rnatilgan elektron dasturda amalga oshiriladi va test natijasi test yakunlangan so'ng ta'lim oluvchi e'tiboriga yetkaziladi.

75. Ta'lim muassasasida nazorat turlarini o'tkazilishi tegishli ta'lim muassasasining ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi (hodimi) tomonidan doimiy ravishda o'rganib boriladi. Bunda

nazorat turlarini o'tkazilish tartibi va ob'ektivlikni buzilish holatlarida, o'tkazilgan nazorat turlarining natijalari bekor qilinishi hamda tegishli nazorat turi qaytadan o'tkazilishi mumkin.

9-bob. Ta'lim oluvchilar bilimini baholash tartibi va mezonlari

76. Ta'lim oluvchining har bir modul bo'yicha o'zlashtirish darajasi ta'lim oluvchilarning bilim, malaka, ko'nikma va kompetensiyalarini baholashning **"100 ballik" baholash tizimi orqali amalga oshiriladi, butun sonlar bilan baholanadi va nazorat turlari yig'indisining o'rtacha ballini reyting tizimiga konvertatsiya qilish asosida ballarda aks ettiriladi.**

77. Bir semestr davomida yakunlanuvchi modul bo'yicha joriy va yakuniy nazorat turlari o'tkaziladi hamda nazorat turlari yig'indisini ikkiga bo'lish orqali ta'lim oluvchining o'rtacha bahosi aniqlanadi, o'rtacha baho konvertatsiya qilish orqali reyting balli hisoblanadi.

78. Ikki va undan ortiq semestr davom etuvchi modullarda joriy, semestr-dan-semestrga o'tishda **sinov** shaklida oraliq hamda modul yakunida yakuniy nazorat o'tkaziladi. **Barcha semestrlardagi joriy nazoratlarining o'rtacha bali, oraliq va yakuniy nazorat baholarining yig'indisini uchga bo'lish orqali** ta'lim oluvchining modulni o'zlashtirish o'rtacha bahosi konvertatsiya qilish orqali reyting balli hisoblanadi.

79. Joriy, oraliq va yakuniy nazoratlarni baholashda hamda mos ravishda modulni o'zlashtirish reyting ko'rsatkichini aniqlashda ta'lim oluvchining nazariy bilimlari, amaliy ko'nikmalari va kompetensiyalari quyidagi mezonlar asosida aniqlanadi:

a) "5" (a'lo), A, reyting bo'yicha 86 — 100 ball olish uchun ta'lim oluvchi:

modul dasturining barcha bo'limlari bo'yicha tizimli, to'la va chuqur bilimga ega bo'lishi, zarur dalillar bilan asoslay olishi;

terminologiyadan (shu jumladan, ilmiy, xorijiy tilda ham) aniq, o'z o'rnida foydalanishi, savollarga javobni mantiqan to'g'ri, stilistik savodli ravishda ifodalashi;

muammoli savollarni aniqlashi, o'z qarashlarini ilmiy-amaliy tilda asoslab bera olishi;

modulning tayanch tushunchalarini bilishi va uni qisqa vaqt ichida ilmiy va amaliy masalalarni yechishda samarali qo'llay olishi;

nostandart vaziyatlarda muammolarni mustaqil va ijodiy hal qila olish qobiliyatini ko'rsata olishi;

amaliy ko'nikmalarni mustaqil ravishda to'liq bajara olishi (sifati va belgilangan soni jihatdan) va kompetensiyalarni to'liq egallashi;

amaliy masalalarni qisqa, asoslangan va ratsional ravishda hal etishi;

modul dasturida tavsiya etilgan asosiy va qo'shimcha adabiyotlarni to'liq va chuqur o'zlashtirishi;

o'rganilayotgan modul bo'yicha nazariyalar, konsepsiyalar va yo'nalishlar mohiyatini anglash, ularga tanqidiy baho berish va boshqa modullar ilmiy yutuqlarini qo'llay olishi;

seminar, nazariy, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarida butun semestr mobaynida ijodiy va mustaqil qatnashishi, guruhli muhokamalarda faol bo'lishi, vazifalarni bajarishda yuqori madaniyat darajasiga ega bo'lishi lozim;

b) "4" (juda yaxshi), V, reyting bo'yicha 81 — 85 ball olish uchun ta'lim oluvchi:

modul dasturining barcha bo'limlari bo'yicha tizimli, to'la va chuqur bilimga ega bo'lishi, zarur dalillar bilan asoslay olishi;

terminologiyadan (shu jumladan, ilmiy, xorijiy tilda ham) aniq, o'z o'rnida foydalanishi, savollarga javobni mantiqan to'g'ri, stilistik savodli ravishda ifodalashi;

o'z fikrini isbotlashda yoki boshqa nazariy materialni bayon qilishda yuzaga kelgan noaniqliklarni mustaqil bartaraf eta olishi;

modulning tayanch tushunchalarini bilishi, qisqa vaqt ichida ilmiy va kasbiy vazifalarni qo'yish hamda hal qilishda undan unumli foydalanishi;

standart vaziyatlarda muammolarni o'quv dasturi doirasida mustaqil hal qila olishi;

amaliy ko'nikmalarni mustaqil ravishda to'liq bajara olishi (sifati va belgilangan soni jihatdan) va kompetensiyalarni to'liq egallashi;

amaliy mashg'ulotlarda normativ-huquqiy hujjatlarni yaxshi bilishini namoyish qilishi, ushbu bilimlarni yangi vaziyatlarda to'g'ri (lekin doim ham ratsional emas) qo'llay olishi, bajarilgan ish natijalarini yetarli darajada rasmiylashtira olmaganligi;

modul dasturida tavsiya qilingan asosiy adabiyotlarni o'zlashtirishi;

o'rganilayotgan modul bo'yicha nazariyalar, konsepsiyalar va yo'nalishlar mohiyatini anglay olishi va ularga tanqidiy baho berishi;

seminar, nazariy, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarida butun semestr mobaynida ijodiy va mustaqil qatnashishi, guruhli muhokamalarda faol bo'lishi, vazifalarni bajarishda juda yaxshi madaniyat darajasiga ega bo'lishi lozim;

v) "4" (yaxshi), S, reyting bo'yicha 71 — 80 ball olish uchun ta'lim oluvchi:

modul dasturining barcha bo'limlari bo'yicha tizimli, to'la va chuqur bilimga ega bo'lishi, zarur dalillar bilan asoslay olishi, ammo bir oz kamchiliklar bilan;

terminologiyadan (shu jumladan, ilmiy, xorijiy tilda ham) aniq, o'z o'rnida foydalanishi, savollarga javobni mantiqan to'g'ri, stilistik savodli ravishda ifodalashi;

o'z fikrini isbotlashda yoki boshqa nazariy materialni bayon qilishda yuzaga kelgan noaniqliklarni mustaqil bartaraf eta olishi;

modulning tayanch tushunchalarini bilishxi, qisqa vaqt ichida ilmiy va kasbiy vazifalarni qo'yish hamda hal qilishda undan unumli foydalanishi;

standart vaziyatlarda muammolarni o'quv dasturi doirasida mustaqil hal qila olishi;

amaliy ko'nikmalarni mustaqil ravishda bajara olishi (sifati va belgilangan soni jihatdan) va kompetensiyalarni egallashi, ammo bir oz kamchiliklar bilan;

amaliy mashg'ulotlarda normativ-huquqiy hujjatlarni yaxshi bilishini namoyish qilishi, ushbu bilimlarni yangi vaziyatlarda to'g'ri (lekin doim ham ratsional emas) qo'llay olishi, bajarilgan ish natijalarini yetarli darajada rasmiylashtira olmaganligi;

modul dasturida tavsiya qilingan asosiy adabiyotlarni o'zlashtirishi;

o'rganilayotgan modul bo'yicha nazariyalar, konsepsiyalar va yo'nalishlar mohiyatini anglay olishi va ularga tanqidiy baho berishi;

seminar, nazariy, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarida butun semestr mobaynida ijodiy va mustaqil qatnashishi, guruhli muhokamalarda faol bo'lishi, vazifalarni bajarishda yaxshi darajaga ega bo'lishi lozim;

g) "3" (qoniqarli), D, reyting bo'yicha 60 — 70 ball olish uchun ta'lim oluvchi:

davlat ta'lim standartlari (talablari) doirasida yetarli bilim hajmiga ega bo'lishi;

terminologiyani ishlatishi, savollarga javoblarni to'g'ri bayon qilishi, lekin bunda ayrim xatolarga yo'l qo'yishi;

javob berishga yoki ayrim maxsus ko'nikmalarni namoyish qilishda qiynalganda, modul bo'yicha asosiy tushunchaga ega ekanligini namoyish etishi;

amaliy ko'nikmalarni (sifati va belgilangan soni jihatdan) mustaqil ammo hatoliklar bilan to'liq bajara olishi;

kompetensiyalarni mustaqil, ammo hatoliklar bilan egallashi;

modulining umumiy tushunchalari bo'yicha qisman bilimga ega bo'lishi va uni standart (namunaviy) vaziyatlarni hal etishda qo'llay olishi;

pedagog xodim yordami bilan standart vaziyatlarni hal eta olishi;

o'qilayotgan modul bo'yicha asosiy nazariyalar, konsepsiyalar va yo'nalishlar mohiyatini anglashi, ularga baho bera olishi;

seminar, nazariy, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarida pedagog xodim rahbarligida qatnashishi, vazifalarni bajarishda yetarli madaniyat darajasiga ega bo'lishi lozim;

d) "3" (o'rta), Ye, reyting bo'yicha 55 — 59 ball olish uchun ta'lim oluvchi:

davlat ta'lim standartlari (talablari) doirasida qoniqarli bilim hajmiga ega bo'lishi;

terminologiyani ishlatishi, savollarga javoblarni to'g'ri bayon qilishi, lekin bunda ayrim qo'pol xatolarga yo'l qo'yishi;

javob berishga yoki ayrim maxsus ko'nikmalarni namoyish qilishda qiynalganda va hatolarga yo'l qo'yganda, modul bo'yicha asosiy tushunchaga ega ekanligini namoyish etishi;

amaliy ko'nikmalarni (sifati va belgilangan soni jihatdan) mustaqil emas va hatoliklar bilan to'liq bajara olishi;

kompetensiyalarni mustaqil emas va hatoliklar bilan egallashi;

modulining umumiy tushunchalari bo'yicha qisman bilimga ega bo'lishi va uni standart (namunaviy) vaziyatlarni hal etishda qo'llay olishi;

pedagog xodim yordami bilan standart vaziyatlarni hal eta olishi;

o'qilayotgan modul bo'yicha asosiy nazariyalar, konsepsiyalar va yo'nalishlar mohiyatini anglashi, ularga baho bera olishi;

seminar, nazariy, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarida pedagog xodim rahbarligida qatnashishi, vazifalarni bajarishda yetarli madaniyat darajasiga ega bo'lishi lozim;

ye) ta'lim oluvchining bilim darajasi "2" (qoniqarsiz), FX, reyting bo'yicha 31 — 54 ball dan past deb baholanadi, agar:

davlat ta'lim standartlari (talablari) doirasida faqat ayrim fragmentar bilimlarga ega bo'lsa;

ilmiy terminlarni ishlata olmasa yoki javob berishda jiddiy mantiqiy xatolarga yo'l qo'ysa;

seminar, nazariy, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarida passiv qatnashib, vazifalar bajarish madaniyatining past darajasiga ega bo'lsa;

amaliy ko'nikmalarga va kompetensiyalarga ega bo'lmasa, o'z xatolarini hatto pedagog xodim tavsiyalari yordamida ham to'g'rilay olmasa.

j) ta'lim oluvchining bilim darajasi "2" (mutloq qoniqarsiz), F, reyting bo'yicha 0-30 ball dan past deb baholanadi, agar:

davlat ta'lim standartlari (talablari) doirasida faqat ayrim fragmentar bilimlarga ega bo'lsa;

terminlarni ishlata olmasa yoki javob berishda jiddiy va qo'pol mantiqiy xatolarga yo'l qo'ysa yoki umuman javob bermasa;

seminar, nazariy, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarida passiv qatnashib, vazifalar bajarish madaniyatining past darajasiga ega bo'lsa yoki umuman bajarmasa;

amaliy ko'nikmalarga va kompetensiyalarga ega bo'lmasa, o'z xatolarini hatto pedagog xodim tavsiyalari yordamida ham to'g'rilay olmasa.

80. Ta'lim oluvchilar reytingini hisobga olishda alohida baholanadi: ishlab chiqarish (malaka) amaliyoti, kurs ishi (loyihasi), bitiruv malakaviy ishi, integratsiyalashgan klinik (mahsus) va klinik-oldi (umumkasbiy) imtihoni, bitiruvchilarning (modullararo) davlat imtihoni (yakuniy davlat attestatsiyasi), shuningdek, magistratura bosqichida ilmiy-tadqiqot va ilmiy-pedagogik ishlar hamda magistrlik dissertatsiyasi.

81. Modullar bo'yicha ta'lim oluvchi reytingi quyidagicha aniqlanadi:

Ball	ECTS baho	ECTS ning ta'rifi	Baho	Ta'rifi
86-100	A	"a'lo" – a'lo natija, minimal hatoliklar bilan	5	a'lo
81-85	B	"juda yaxshi" – o'rtadan yuqori natija, ayrim hatoliklar bilan	4	yaxshi
71-80	C	"yaxshi" – o'rtacha natija, sezilarli hatoliklar bilan		
60-70	D	"qoniqarli" – sust natija, qo'pol kamchiliklar bilan	3	qoniqarli
55-59	E	"o'rta" – minimal natijaga teng		
31-54	FX	"qoniqarsiz" – minimal darajadagi bilimlarni olish uchun qo'shimcha mustaqil o'zlashtirishi zarur	2	qoniqarsiz
0-30	F	"mutloq qoniqarsiz" – to'liq qayta o'zlashtirishi lozim		

82. Bitiruvchilarni davlat imtihoni (yakuniy davlat attestatsiyasi)ga kiritilishi uchun ta'lim oluvchi belgilangan kreditlarni to'liq yig'ishi, shu bilan birgalikda reyting daftarchaning "Amaliy

ko'nikmalarni va kompetensiyalarni o'zlashtirish daftarchasi" ilovasida barcha amaliy ko'nikmalarni sifat va son jihatdan, kompetensiyalarni to'liq bajargan bo'lishi lozim.

83. Ta'lim oluvchining keyingi kursga o'tish sharti sifatida joriy, oraliq va yakuniy nazoratlardan akademik qarzdorlikning yo'qligi bilan bir qatorda ishlab chiqarish (malaka) amaliyoti va integratsiyalashgan klinik-oldi (umumkasbiy) va klinik (mahsus) imtihonlaridan ijobiy ballni olishi hisoblanadi.

84. Ishlab chiqarish (malaka) amaliyoti bo'yicha imtihonni tashkil qilish va o'tkazish qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

10-bob. Nazoratlarni qayta topshirish tartibi va o'tkazish muddatlari

85. **Joriy nazoratlardan qoniqarsiz baho olgan va o'z vaqtida topshirmagan** ta'lim oluvchiga pedagog xodim, kafedra mudiri va fakultet dekanati nazoratida oraliq va yakuniy nazoratlar o'tkazilish davrigacha qayta topshirishga ruxsat beriladi.

86. O'quv mashg'ulotlarida **hujjat bilan tasdiqlangan uzrli sabablar** tufayli (betoblik, yo'l-transport hodisasi, yaqin qarindoshining vafoti, nikoh tuzish, farzand tug'ilishi) ishtirok etmagan, va shu sababli oraliq yoki yakuniy nazorat, integratsiyalashgan klinik-oldi (umumkasbiy) va klinik (mahsus) imtihonlarini belgilangan muddatda topshirmagan ta'lim oluvchiga o'quv ishlari bo'yicha prorektor bilan kelishilgan holda dekanlar (o'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i) tomonidan qayta o'zlashtirish uchun akademik qarzdorlar uchun beriladigan bir oylik muddatda oraliq, yakuniy nazorat yoki integratsiyalashgan klinik-oldi (umumkasbiy) va klinik (mahsus) imtihonlarini topshirishga ruxsat beriladi.

87. Ta'lim oluvchi semestrda joriy nazoratning har bir turi bo'yicha hamda oraliq va yakuniy nazorat turlari, integratsiyalashgan klinik-oldi (umumkasbiy) va klinik (mahsus) imtihonlarining har biridan umumiy ballining 54 foizidan (qoniqarsiz) kam to'plagan bo'lsa **akademik qarzdor hisoblanadi**.

88. Agar ta'lim oluvchi semestrda joriy nazoratning har bir turi bo'yicha hamda umumiy ballining 54 foizidan (qoniqarsiz) kam to'plagan bo'lsa, oraliq, yakuniy nazorat yoki integratsiyalashgan klinik-oldi (umumkasbiy) va klinik (mahsus) imtihonlariga kiritilmaydi.

89. Akademik qarzdor ta'lim oluvchilarga semestr tugaganidan keyin qayta o'zlashtirish, ya'ni tegishli nazorat turini qayta topshirish orqali akademik qarzdorlikni bartaraf qilish uchun bir oy muddat beriladi. Akademik qarzdor uchun qayta topshirishning aniq muddatlari fakultet dekanatlari tomonidan belgilanadi.

90. Joriy nazoratni qayta topshirish kafedra tomonidan tashkil qilinishi shart.

91. Qayta topshirish natijalari alohida qaydnoma tarzida qayta o'zlashtirish uchun beriladigan bir oylik muddatda o'quv-uslubiy boshqarma va fakultet dekanatlariga topshirilishi shart.

92. Oraliq va yakuniy nazorat, integratsiyalashgan klinik-oldi (umumkasbiy) va klinik (mahsus) imtihonlarini o'tish reyting ballini ko'tarish maqsadida qayta topshirishga ruxsat berilmaydi.

93. Modulni belgilangan muddatda o'zlashtirmagan va akademik qarzdorlikni bartaraf etmagan ta'lim oluvchi fakultet dekanining tavsiyasiga ko'ra, institut rektori buyrug'i bilan kreditlar to'planmagan modullarni qayta o'qish uchun tegishli kursda qoldiriladi.

94. Ta'lim oluvchilarga stipendiya ular tomonidan akademik qarzdorlik bartaraf etilgan oydan keyingi oyning birinchi sanasidan boshlab tayinlanadi.

95. Bitiruvchi kurs bo'lmagan ta'lim oluvchi kuzgi semestr natijalari bo'yicha 3tagacha modul (modullar)dan akademik qarzdorligi bo'lgan hollarda ta'lim oluvchiga bir oygacha, bahorgi semestr natijalari bo'yicha 3tagacha modul (modullar)dan akademik qarzdorligi bo'lgan ta'lim oluvchiga tegishli modul (modullar) bo'yicha oraliq va (yoki) yakuniy nazorat turlarini yangi o'quv yili boshidan qayta topshirish uchun 1 oy muddat beriladi.

96. Bitiruvchi kurs ta'lim oluvchilarga bahorgi semestr natijalari bo'yicha o'zlashtirmagan modul (modullar)dan qayta topshirish uchun davlat imtihoni boshlangunga qadar ruhsat beriladi.

97. Modullardan akademik qarzдорligi 4ta va undan ko'p bo'lgan ta'lim oluvchilarga qayta topshirishga ruhsat berilmaydi va ular ta'lim muassasasi rahbari buyrug'i bilan kursda qoldiriladi.

98. Ta'lim oluvchiga oraliq va (yoki) yakuniy nazorat turini qayta topshirishlar soni 2 martadan ko'p bo'lmazligi kerak.

99. Talaba oraliq va (yoki) yakuniy nazorat, integratsiyalashgan klinik-oldi (umumkasbiy) va klinik (mahsus) imtihonlarini birinchi marta qayta topshirishdan o'ta olmagan taqdirda, fakultet dekani tomonidan komissiya tuziladi. Komissiya tarkibi tegishli modul bo'yicha pedagoglar va soha mutahassislari orasidan shakllantiriladi.

Ikkinchi marta oraliq va (yoki) yakuniy nazorat, integratsiyalashgan klinik-oldi (umumkasbiy) va klinik (mahsus) imtihonlarini o'tkazish va ta'lim oluvchini baholash mazkur komissiya tomonidan amalga oshiriladi.

100. Berilgan muddat davomida mavjud bo'lgan qarzдорlikni topshira olmagan ta'lim oluvchi bo'yicha fakultet dekani bildirgi bilan institut rektorini habardor qiladi va ushbu ta'lim oluvchi rektor buyrug'i bilan kursda qoldiriladi.

101. Kursda qoldirilgan ta'lim oluvchi modul (modullar)ni o'zlashtirmagan semestr boshidan to'lov-kontrakt asosida mazkur o'quv yilining tegishli semestri uchun tasdiqlangan o'quv rejaga muvofiq o'qishni davom ettiradi.

11-bob. Reyting natijalarini qayd etish va tahlil qilish

102. Ta'lim oluvchining modul bo'yicha to'plagan ballari semestr yakunida jamlovchi reyting (elektron) qaydnomasiga butun son ko'rinishida kiritiladi. Modulni o'qitayotgan pedagog xodimlar ta'lim oluvchilar reytingini hisobga olish elektron tizimining tegishli bo'limini to'ldiradi.

103. Pedagog xodim tomonidan oraliq va yakuniy nazorat, integratsiyalashgan klinik-oldi (umumkasbiy) va klinik (mahsus) imtihonlari, OSE/OSCE baholash varaqasining, yozma ishining titul varag'i ustida ball qo'yilishi shart. Ball aniq ifodalangan shaklda pedagog xodimning imzosi bilan tasdiqlangan holda qo'yilishi kerak.

104. Har qanday tuzatishlar kafedra mudirining imzosi bilan tasdiqlanishi shart.

105. Pedagog xodim joriy nazorat reyting qaydnomasi, oraliq va yakuniy nazorat qaydnomalariga asosan ta'lim oluvchilarni modul bo'yicha yakuniy natijalarini (reytingini) aniqlaydi va jamlovchi reyting (elektron) qaydnomasini tuzadi.

106. Ta'lim oluvchining reytingi uning bilimi, malakasi, ko'nikmalari va kompetensiyalari darajasini belgilab beradi. Ta'lim oluvchining semestr (kurs) bo'yicha umumiy reytingi barcha modullar bo'yicha to'plagan reyting ballarini qo'shish yo'li bilan aniqlanadi.

107. Ta'lim oluvchilarning umumiy reytingi, shuningdek modullar bo'yicha to'plangan kreditlar soni har bir semestr va o'quv yili yakunidan so'ng e'lon qilinadi.

108. Agar modul bir necha semestr davomida o'tilgan bo'lsa, fakultet dekanatlari tomonidan ta'lim oluvchi diplomining ilovasi yoki akademik ma'lumotnoma tuzilayotgan vaqtda reytinglar yig'indisi va to'plangan kreditlar soni hisobga olinadi.

109. Integratsiyalashgan klinik-oldi (umumkasbiy) va klinik (mahsus) imtihonlari natijasi kursdan-kursga o'tish davrida asosiy sinov sifatida hisobga olinadi.

110. Ta'lim oluvchiga imtiyozli diplom belgilash vaqtida uning modullar bo'yicha o'zlashtirishi har bir semestr natijasiga ko'ra hisobga olinadi.

111. Ta'lim oluvchining nazorat turlari bo'yicha erishgan natijalari fakultet dekanati tomonidan tizimli ravishda tahlil qilinadi.

112. Joriy, oraliq, yakuniy nazorat, integratsiyalashgan klinik-oldi (umumkasbiy) va klinik (mahsus) imtihonlarining natijalari institut Kengashida muntazam ravishda muhokama qilinadi va ular yuzasidan tegishli qarorlar qabul qilinadi.

113. O'quv yilining yakuni bo'yicha reyting nazorati natijalariga ko'ra ta'lim oluvchilarni belgilangan tartibda keyingi kursga o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilinadi.

12-bob. Yakuniy qoida

114. Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Innovatsion sog'liqni saqlash milliy palatasi bilan kelishilgan Nizom asosida ishlab chiqilgan..

O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i

Q.K.Isakov

Davolash fakulteti dekani

D.Sh.Tulanov

Pediatrica fakulteti dekani

Sh.T.Bozorov

Stomatologiya fakulteti dekani

F.A. Urinov

Farmatsiya fakulteti dekani

K. .Yulchiyev